

MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL O‘QUV MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISH

Jovliyeva Dildora

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinf matematika darslarida “Qiymatga doir masalalar yechish” mavzusini interfaol metodlar bilan tashkil qilish va u orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: matematika, intellekt, qiymat, masala, miqdor, narx.

Abstract: This article is devoted to the organization of the topic "Solving problems related to value" in elementary school mathematics classes with interactive methods and through it to the improving creative ability of school children .

Key words: math, intellect, rate, problem, amount, price

"**Matematika** – bu yunoncha bilim, fan ma’nosini anglatib, aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi ta’limotdan iborat bo‘lib, u insonning aqlini o‘stiradi, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan (rejalashtirilgan) maqsadga etish uchun o‘zida qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, o‘zidagi algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va eng muhimi uning matematik tafakkuri kengayadi" [1].

"Ob’ektiv olam, narsa va hodisalarni ilmiy bilishda, yangi ma’lumotlar olishda, ro‘y bermagan hodisalarni bashorat qilishda matematikaning roli nihoyatda katta" [Qomusiy lug‘at].

"**Matematika fani** (yunon. **mathematike**, **mathema** - bilim, fan) - aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Uning dastlabki ob’ekti sanoq bo‘lgani uchun ko‘pincha unga "Hisob-kitob haqidagi fan" deb ataladi" [O‘zME - 5 j].

Demak, matematika atrofimizdagi olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, raqamlar va fugalalar yordamida tevarak - atrofimizni o‘rab turgan voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarni ochib beradi, ya’ni jamiyat va tabiatda ro‘y beradigan jarayon va hodisalardagi qonuniyatlarni matematik belgilar asosida ixcham ko‘rinishda ifoda etadi va eng asosiysi, bu ko‘rinishni (matematika tilini) barcha xalqlar (millati, dini, e’tiqodi, tili qanday bo‘lishidan qat’iy nazar) tushunadi.

Umuman olganda, matematikaga mukammal ta’rif berish juda qiyin, chunki hozirda turli fanlarda va jamiyat (hayot) ning turli jabhalarida matematika fani yutuqlaridan foydalanmaydigan joyni topish juda qiyin. SHuningdek, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ham matematik ta’limga munosib e’tibor qaratilgan. Xususan boshlang‘ich ta’limiga oid Davlat ta’lim standartlarida ham matematik ta’lim mazmun-mohiyati quyidagicha ifodalangan:

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va ifodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomni ta’minlaydi va tafakkurni kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Matematika fanidan 1 soatlik dars ishlanmasini tuzish.

Mavzu: “Qiymatga doir masalalar yechish”

Matematika faniga qo‘yilgan talablar: O‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish.

Darsning maqsadi;

Ta‘limiy maqsadi- O‘quvchilarda qiymat, qiymatga doir masalalar yechish va narx, miqdor haqida bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsadi- O‘quvchilarni mehnatsevarlik va tartib-intizomlilik ruhida tarbiyalash va o‘quvchilarda guruh bilan ishlash, bir-birini eshitish, bir-birini hurmat qilish ko‘nikmalari rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi maqsadi- O‘quvchilarda kompetensiya turlaridan amaliyotda foydalanish va mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Yangi mavzuni o‘rganish va mustahkamlash.

Dars jihozi: sinf darsligi, monitor, kompyuter, tarqatmalar, ko‘rgazmali vositalar va rag‘bat kartochkalari.

Dars usuli: Guruhlarda ishlash, “Singan tuxum”, “BBB”, “Aqliy hujum”, “Sirli soat”

I Tashkiliy qism

1. salomlashish, davomat aniqlash ;
2. navbatchilik va sinf xonasining tozaligi;
3. darsga tayyorgarlik;

II O‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash

“Sirli soat” metodi

**.. SIRLI SOAT ..
METODI**

1 km ming metr.
 Sonlar **2** xil juft va toq.
 Uchburchakning **3** ta tomoni bor.
 O‘lchov miqdorlari **4** xil.
5 sutka 120 soatga teng.
6 yil 72 oydan iborat.
 70 sm = **7 dm** ga teng
 Masalar **8** ta turga bo‘linadi.
9 eng katta 1 xonali sonidir.
10 ni Al-Xorazmiy fanga kiritdi.
11 kg 11000 grammga teng.
12 minut 720 sekuntga teng.

Har bir guruhga sirli soatdan bittadan beriladi va guruh a‘zolari soatning sirini ochishlari lozim bo‘ladi. Ular o‘tilgan mavzuga oid ma‘lumotlar yozishadi va ma‘lumot yozilgan qog‘ozning orqa tarafiga 1 dan 12 gacha bo‘lgan raqamlarni yozib chiqishadi. Qog‘ozda yozilgan ma‘lumotlar o‘qib ketma-ketlikda soatimizga yopishtiriladi va soatimizning siri ochiladi.

Bu metod o'tilgan mavzuni takrorlashda juda qulay va samarali hisoblanadi. Har bir jamoadan 12 tadan ma'lumot aytiladi va hammasi bo'lib 36 ta o'tilgan darsga oid bo'lgan ma'lumotlar aytib chiqiladi. Aytilgan ma'lumotlar bir-birini takrorlamasligi lozim.

1-guruh	2-guruh	3-guruh

III. Yangi mavzu bayoni

Yangi darsni rejasi:

1. Qiymat haqida ma'lumot.
2. Qiymat, narx, va miqdor ($C=p*n$)
3. Qiymatlashga doir misol va masalalar yechish..

Qiymat- C

Miqdor- n

Narx-p

1. Bitta oltin tangani 12 ta kumush tangaga almashtirish mumkin. 2 ta oltin tanga uchun nechta kumush tanga olish mumkin? 3 ta oltin tanga uchun-chi? 5 ta oltin tanga uchun-chi?

2. **Sxemalarni o'rganing.** Har bir sxema uchun daftaringizga tegishli formulani yozing va ulardan masalalarni yechishda foydalaning.

a) Qadimda bitta sigir uchun 50 kumush tanga berilgan. 5 ta sigir uchun qancha kumush tanga berilishi kerak?

b) Xon uchta qilich uchun 30000 ming kumush tanga bergan. 1 ta qilichning narxi qancha bo'lgan?

3. Masalani yechish uchun sxema tuzing. Sxemada 2 katakni 100 tanga deb oling. Qadimda uy hayvonlari juda qimmat bo'lgan. Masalan, bitta tuyaning narxi 100 kumush tangagacha yetgan. Savdogarga 8 ta tuyadan iborat poda qanchaga tushgan?

4. **Hisoblang.** Bizning mamlakatimizda ishlatilgan oltin va kumush tangalar qadimda qanday atalganini toping.

O 14 534 + 45 331

D 100 000 - 37 993

A 59 * 1066

I 310 600 : 5

M 35 817 + 27 338

N 313 453 - 245 484

R 303 * 202

H 523 386 : 9

5. Katta pirog va 4 ta kulcha uchun 152.000 so'm to'landi. Agar pirogning narxi 120 000 so'm bo'lsa, bitta kulcha qancha turadi? Shular kabi darslikda berilgan 1-dan 10-gacha bo'lgan misol va masalalar dars davomida bajariladi.

IV Yangi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini tekshirish

“AQLIY HUJUM” metodi

Mazkur metodda biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadi. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki pinbord doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi.

“Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta‘lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, ta‘lim oluvchilarda mulqot qil ish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi.



QUVNOQ DAQIQA

- | | |
|---|----------------|
| Savol: Ichi bo‘yoq , sirti tayoq? | Javob: Qalam . |
| 2. O‘qituvchi: O‘zi bitta, qulog‘I to‘rtta? | Javob: Qozon . |
| 3. O‘qituvchi: Uzun terak, ichi kavak.? | Javob: Qamish. |
| 4. O‘qituvchi : .Joni yo‘g‘u, uy poylar. | Javob: Qulf. |
| 5. Savol: Uzoq tog‘da o‘t yonar. | Javob: Quyosh. |
| 6. Savol: Oq tovuq katagi sovuq. | Javob : Qor. |
| 7. Savol: Uy ustida sari yoy. | Javob: Qosh. |
| 8. Savol: Qo‘sh g‘ildirak , hammaga kerak. | Javob: Quloq. |

V. Faol o‘quvchilarni rag‘batlantirish va baholash

VI. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish

Uyga vazifa: 11-12-misol va masalalarni yechish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q., Safarova R.F., Bikbaeva N.U., Yangibaeva E., Hasanbaeva O., Ne‘matova A. Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta‘lim standarti // Boshlang‘ich ta‘lim. IMJ.- T., 2005.- № 5. - B. 2-50.
2. Abdulkarimov H. Innovatsion texnologiyalar va ularning pedagogik mohiyati // Uzluksiz ta‘lim tizimida ma‘naviy-kasbiy barkamol shaxs tarbiyasi: Respublika ilmiy-

amaliy konferensiyasi materiallari.-Guliston, 2007, - B. 67-69.

3. To‘raqulova M.A., Xolbo‘taeva V.O. O‘quvchilar matematik tafakkurini yuksaltirishga kreativ yondashuv // Boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammolar va echimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Jizzax, 2020.-B. 368-371.

4. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T. : SHarq, 2004, 324 b.

5. lex.uz

6. Ziyonet.uz